SIRDARYO VILOYATI SIRDARYO TUMANI HOKIMI
Q A R O R I

2022 - yil 19 - iyul 242-9-128-Q/22 Sirdaryo tuman hokimligi

Sirdaryo shaxar O'zbekiston ko'chasining 68-uyda joylashgan Sirdaryo tumani Ichki Ishlar Boshqarmasining qarshisiga hamda Sirdaryo shaxar O'zbekiston ko'chasi 80-uyda joylashgan Jinoyat ishlari bo'yicha Sirdaryo tumani sudining qarshisidan o'tgan yo'lida avtomobillarning harakatlarini tartibga solish maqsadida, ushbu yo'lning ikki chetiga 3.27 "To'xtash taqiqlangan" taqiqlovchi yo'l belgilarini o'rnatilish tog‘risida.

O‘zbekiston Respublikasining “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonuni, Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 19-maydagi 377-son “O‘zbekiston Respublikasi yo‘l xavfsizligini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi hamda 2019-yil 9-apreldagi 292-sonli “Yo‘l harakati qoidalariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qarorlari ijrosini ta’minlash, Sirdaryo tuman ichki ishlar boshqarmasining 05.04.2022-yildagi 31/1626-sonli xatiga hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6, 25-moddalariga asoslanib, **qaror qilaman:**

1. Tuman hokimligida 2022-yil 6-aprel kuni 325-son bilan ro‘yxatga olingan, Sirdaryo tuman ichki ishlar boshqarmasining 05.04.2022-yildagi 31/1626-sonli xati qanoatlantirilsin.

2. Sirdaryo yo‘llardan muntazam foydalanish unitar korxonasi (Sh.Shamsiddinov) va tuman hududiy yo‘llardan foydalanish DUK (B.Bektemirov) belgilangan tartibda quyidagi joyga:

- Sirdaryo shaxar O'zbekiston ko'chasining 68-uyda joylashgan Sirdaryo tumani Ichki Ishlar Boshqarmasining qarshisiga hamda Sirdaryo shaxar O'zbekiston ko'chasi 80-uyda joylashgan Jinoyat ishlari bo'yicha Sirdaryo tumani sudining qarshisidan o'tgan yo'lida avtomobillarning harakatlarini tartibga solish maqsadida, ushbu yo'lning ikki chetiga 3.27 "To'xtash taqiqlangan" taqiqlovchi

yo'l belgilarini o'rnatilsin.

3. Sirdaryo tumani Ichki ishlar boshqarmasi YHXB (E.Bayzakov) o‘rnatiladigan yo‘l belgilarini tegishli tartibda hisobga olib, yo‘l harakati xavfsizligiga rioya qilinishini nazoratga olsin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari B.Berdiyev zimmasiga yuklatilsin.

5. Mazkur qaror rasmiy nashrda e’lon qilingan vaqtdan e’tiboran kuchga kiradi.

Tuman hokimi **B.Mirzaqulov**